ONLINE JOURNAL
E-ISSN:3060-5490

INSTITUTE OF UZBEK NATIONAL
MUSICAL ART NAMED AFTER YUNUS RAJABI

Milliy Madaniyat Jurnali - Журнал Национальной Культуры

Journal of national CULTURE

Published: 04.09.2026
DOI: https://doi.org/10.64681/18exjw26

ilmiy uslubiy jurnali – научно-методический журнал – research and methodological journal

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti
MILLIY MADANIYAT JURNALI, 2 (3), 2026
www.jnculture.uz

Maqom san’ati: tabulaturadan raqamlashtirishgacha

(Maqom art: from tablature to digitization)

Gulchexra Ergasheva

“National Instrument” Research and Production Experimental Laboratory
State Conservatory of Uzbekistan
100027, Botyr Zakirov, 1
Uzbekistan/Tashkent
E-mail: ergasheva.g.t@mail.ru

Annotatsiya

Mazkur maqola o‘zbek maqom san’ati nota yozuvlari, manbashunosligi va nazariy tafakkurining tarixiy tadrijiyotini keng qamrovli tahlil etishga bag‘ishlangan. Unda o‘rta asr Sharq musiqa ilmi allomalari Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino va Safiuddin al-Urmaviylarning musiqiy risolalarida bayon etilgan harfli notatsiya tizimlari, keyinchalik Xiva xoni Muxammad Raximxon Feruz saroyining atoqli musiqashunosi va sozandasi Komil Xorazmiy tomonidan kashf etilgan “Xorazm tanbur chizig‘i” tabulaturasi, ularning ilmiy-estetik tabiati chuqur yoritilgan. Maqolada og‘zaki an’anadagi mumtoz maqom namunalarining yozma nota tizimiga o‘tish bosqichlari ochib berilgan. XX asrlarda shu soha vakillari, mutaxassis va mohir ijrochilar tomonidan milliy merosimizni yevropacha nota yozuviga ko‘chirish jarayonida yuzaga kelgan metodologik muammolar, mumtoz kuylarga xos bo‘lgan qochirimlar tahlil qilingan. Shuningdek, raqamli musiqashunoslik (Digital Musicology) metodologiyasiga asoslanib maqom ijrochiligining o‘ziga xosligini saqlagan holda noyob audioarxivlarni akustik tahlil qilish, maxsus raqamlashtirish dasturlari orqali maqom namunalarini asrab qolish, musiqiy merosni raqamli formatga ko‘chirish, audio va video ma’lumotlarni tizimlashtirish va ularni elektron arxivlar hamda zamonaviy multimedia platformalarida saqlash va targ‘ib etish kabi masalalar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: maqom san’ati, individual ijro uslubi, tabulatura, “ustoz-shogird” tizimi, raqamlashtirish, harfli notatsiya, audioarxiv, multimediya, og‘zaki an’ana, tizimlashtirish.

Abstract

This article presents a comprehensive analysis of the historical development of notation, source studies, and theoretical thought in Uzbek maqom art. It examines the letter-based notation systems described in the musical treatises of the medieval Eastern scholars Abu Nasr al-Farabi, Abu Ali ibn Sina, and Safi al-Din al-Urmawi, as well as the Khorezm tanbur notation, a tablature devised by the distinguished

music theorist and performer Komil Khorezmi at the court of the Khivan ruler Muhammad Rahim Khan II, Feruz, and explains their scholarly and aesthetic nature. The stages through which classical maqom examples of the oral tradition were transferred into written notation are outlined. The methodological problems that arose when specialists and master performers transcribed the national heritage into European staff notation during the twentieth century are analyzed together with the ornaments characteristic of classical melodies. Drawing on the methodology of digital musicology, the article also considers acoustic analysis of rare audio archives while preserving the distinctive features of maqom performance, the use of specialized digitization software to safeguard maqom examples, the conversion of musical heritage into digital formats, and the systematization, preservation, and dissemination of audio and video materials through electronic archives and modern multimedia platforms.

Keywords: maqom art, individual performance style, tablature, master-apprentice system, digitization, letter notation, audio archive, multimedia, oral tradition, systematization

Аннотация

Настоящая статья посвящена комплексному анализу исторической эволюции систем фиксации узбекского макомного искусства в контексте музыкального источниковедения и теоретического музыкознания. В исследовании последовательно раскрываются принципы буквенной нотации, разработанные в теоретических трактатах выдающихся мыслителей средневекового Востока Абу Насра аль-Фараби, Абу Али ибн Сины и Сафиуддина аль-Урмави, а также научно-эстетическая специфика «хорезмской танбурной нотации» (табулатуры), созданной выдающимся музыкантом-исполнителем и музыкальным теоретиком Комилом Хоразми, творившим при дворе хивинского правителя Мухаммада Рахим-хана II (Феруза). Особое внимание уделено методологическим коллизиям XX столетия, обусловленным транскрибированием устно-профессионального наследия посредством европейской пятилинейной нотации представителями данной сферы, специалистами и мастерами-исполнителями, а также проблемам графической репрезентации специфических микроинтервальных и мелизматических украшений (қочиримлар), имманентных классическим напевам. Наряду с этим, с опорой на методологический аппарат цифрового музыковедения (Digital Musicology), рассмотрены акустический анализ раритетных аудиоархивов с сохранением интонационно-исполнительской специфики макома, сохранение образцов макомного искусства посредством специализированного программного обеспечения для оцифровки, перевод музыкального наследия в цифровой формат, а также систематизация аудио- и

видеоматериалов, их долговременное хранение и научная актуализация в электронных репозиториях и на современных мультимедийных платформах.

Ключевые слова: искусство макома, индивидуальный исполнительский стиль, табулатура, система «устоз-шогирд» (от наставника ученику), оцифровка, буквенная нотация, аудиоархив, мультимедиа, устная традиция, систематизация.

O‘zbek maqom san’ati o‘zining ko‘p asrlik tarixiy-evolyutsion taraqqiyoti jarayonida ko‘p qatlamli lad-intonatsion va metro-ritmik tizimlarni o‘zida mujassam etgan, yuksak badiiy-estetik qimmatga ega noyob og‘zaki-professional musiqa merosidir.

Ushbu mumtoz san’at xalqning tarixiy-madaniy tafakkuri, falsafiy-estetik dunyoqarashi hamda badiiy-ijodiy salohiyatining bevosita in’ikosi sifatida namoyon bo‘ladi. Sharq xalqlari musiqa madaniyati tarixida muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etgan “Duvozdahmaqom” (“O‘n ikki maqom”) an’anasi hamda uning tarixiy vorisligi asosida shakllangan Buxoro Shashmaqomi, Xorazm maqom turkumlari va Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari kabi yirik lokal ijro maktablari jahon musiqashunosligi uchun bebaho ilmiy-madaniy xazina hisoblanadi.

Ilmiy-nazariy tafakkurni o‘zida jamlagan ushbu turkumlar o‘zining murakkab usullari, jozibador nolalari va chuqur falsafasi bilan bir-biridan farq qiladi. Ushbu maqom namunalarini avlodlardan avlodga yetkazishda o‘rta asr Sharq musiqashunosligida shakllangan tabulatura va harfli notatsiya usullari muhim metodologik va amaliy ahamiyat kasb etadi. O‘rta asr qomusiy allomalarining musiqiy risolalarida mazkur notatsiya shakllari musiqa nazariyasi bilan ijrochilik amaliyotini o‘zaro muvofiqlashtiruvchi dastlabki yozuv vositasi sifatida ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan.

“O‘n ikki maqom” tizimini ilk bor tasnif etgan musiqashunos Safiuddin Urmaviy (XIII) ud cholg‘usiga asoslangan maxsus yozuv (tabulatura)ni ixtiro etib,

uning yordamida ayrim maqom namunalarini yozuv bilan muhrlashga erishdi [4, 65-b.]. Aniqrog‘i, kuylardagi parda, usul, she’riy matnlar va ijrochilikka oid tomonlarini belgi, alomat va izohli so‘zlar yordamida ko‘rsatib berdi. Manbalarda qayd etilishicha, ushbu tadqiqot ijrochilar orasida og‘zaki an’anada o‘tib kelayotgan kuy shakllarini hosil qiluvchi tamoyillarni to‘laligicha ochib bera olmagani bois, u amaliyotda tatbiq qilinmay qolgan.

XIX asrning oxirgi choraklarida maqomlarni notaga olishga shoir, mashhur Xorazm notatsiyasining ixtirochisi Komil Xorazmiy va uning o‘g‘li shoir Muhammad Rasul Mirzo tomonidan birinchi marta harakat qilingan. Bu nota tizimi maxsus tanbur uchun ishlangan bo‘lib, maqomlarni o‘rganishda o‘z zamonasi uchun katta ahamiyatga ega bo‘ldi [5, 4-b.]. “Xorazm tanbur chizig‘i” (tabulatura) tanbur pardalarining soniga ko‘ra o‘n sakkizta gorizontal chiziq va maxsus belgilardan iborat bo‘lgan. Qurilma, o‘zining texnik jihatdan murakkab bo‘lishiga qaramay, Xorazm maqomlari (“Olti yarim maqomlar”), Dutor maqomlari hamda Xorazm mumtoz va xalq musiqasining boshqa namunalari ushbu tabulatura yordamida yozib olingan [3, 5-b.].

Avvalgi ixtiro qilingan tabulaturadan farqli o‘laroq, tanbur cholg‘usiga asoslangan ushbu qurilmada cholg‘u dastasida belgilab berilgan pardalar aniq ifoda etilgani bois, unda maqomlarni yozib olish imkoniyati kengroq bo‘lgan va u amaliyotga joriy etilgan. Zotan, mumtoz kuylarimizni talqin qilishda tanburning barcha jihatlari (tuzilishi, sadosi, ijro uslublari), uning doimo yetakchi cholg‘u bo‘lishiga asos bo‘lgan.

O‘zbek milliy musiqa merosi jonkuyari, jurnalist Niyoz Rajabzoda “Tanbur” nomli maqolasida (Maorif va o‘qituvchi gazetasi 1925-yil №1) “... nafis kuylarimizning yuzdan saksoni aynan tanbur orqali ijro qilingan. Kuylarni ijro qilishda qolgan cholg‘ular tanbur qadar qulay bo‘la olmaydi. Piano (pianino) Yevropa musiqachilarining birdan-bir quroli bo‘lib, eng mashhur operalar pianinoda

ijro qilingan bo‘lsa, Sharqning eng dongli maqomlari tanbur bilan olingan” [1, 27-b.], – deya ta’rif berishi fikrimizning yorqin dalilidir.

XX asrning 30-yillariga kelib o‘zbek ijro amaliyotiga yevropacha besh chiziqli nota tizimi kirib keldi. Bu davrga kelib “Shashmaqom” va o‘zbek xalq qo‘shiqlarini notalashtirish ishlariga o‘z davrining musiqa arbobi, kompozitor va taniqli etnograf olim V. A. Uspenskiy jalb etildi. V. A. Uspenskiy Ota Jalol Nosirov va Mirza G‘iyos G‘aniyevlardan Buxoro Shashmaqomining cholg‘u (mushkilot) va kuy qismlarini tinglab, notaga tushirishga muyassar bo‘ldi. I.Rajabov aytganidek, bu ustozlar hayotlik vaqtida maqomlarning yozib olinganligi o‘z originallik xususiyati bilan juda katta qiymatga ega.

1924-yili ushbu to‘plam Moskvada “Шесть музыкальных поэм. Шашмаком” (“Shashmaqom. Olti musiqiy poema”) nomi bilan A.Fitrat va N. Mironov tahriri ostida nashr etildi [2, 25-b.]. Sho‘ro mafkurasi maqomlarni “eski tuzum va xonlik saroyi musiqasi” deb baholagani bois, maqomlarning cholg‘u qismlarini sof holda saqlab qolish maqsadida faqat kuy yo‘llarining o‘zi notaga tushirilgan, g‘azallarning she’riy matnlari kiritilmagan.

1957-yili Shashmaqomning Xorazm varianti dastlab musiqashunos Ye.E.Romanovskaya tomonidan qisman (faqat cholg‘u yo‘llari) notaga olinib, nashr etilgan (Е.Романовская “Хорезмские классические песни”. “Xorazm klassik qo‘shiqlari”). Keyingi yillarda Xorazm maqomlari mohir ijrochi M.Yusupov tomonidan to‘planib, notaga olingan va nashr etilgan.

1950-1961-yillarda B.Fayzullayev, F.Shahobov, Sh.Sohibov tomonidan besh jildlik to‘liq matnli “Shashmaqom” to‘plami Moskvada nashr etildi. Bu nashrda maqomlarning ashula qismiga mos so‘zlar va har bir maqomga xos pardalar to‘g‘ri topib qo‘yilgan. Biroq ilgari maqomdon ustozlar maqom sho‘balarini ikki tilda, ko‘proq tojik tilidagi g‘azallarni ijro etganlari bois, unda o‘zbek tilidagi she’rlar ishlatilmagan.

1966–1975-yillarda musiqashunos Yunus Rajabiy tahriri va nota yozuvi asosida olti jildlik fundamental “Shashmaqom” to‘plami Toshkentda nashr etildi. Mazkur noyob musiqiy meros 2007-yilda YUNESKO ko‘magida “O‘zbek maqomlari. Shashmaqom” nomi ostida qayta nashr qilindi. To‘plamdagi maqom turkumlarining ashula yo‘llarida Sharq mumtoz adabiyoti namoyandalari Atoyi, Lutfiy, Sakkokiy, Navoiy, Ogahiy, Bobur, Fuzuliy, Nodira va boshqa ko‘plab shoirlarning g‘azallaridan foydalanilgan. Shashmaqomning cholg‘u va ashula yo‘llari Yu.Rajabiy, B.Zirqiyev, M.Mullaqandov, M.Toshpo‘latov, M.Tolmasov, Ya.Dovidovlardan yozib olingan [5, 6-b.].

Maqom namunalari jamlangan nota to‘plamlarida Yevropa nota tizimi milliy mumtoz musiqaning shakl hosil qiluvchi o‘ziga xos ijrochilik xususiyatlarini (chorak pardalar, qochirim va melizmatik nolalar) to‘laqonli aks ettira olmagan bo‘lsa-da, mazkur notatsiya tizimi G‘arb nazariy-metodologik yondashuvi bilan milliy og‘zaki-professional ijro amaliyotini uyg‘unlashuvida, shuningdek, mumtoz musiqamizni asrab qolish va keyingi avlodlarga yetkazishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etdi.

Maqom san’ati og‘zaki-professional an’anaga tayangan musiqiy tizim bo‘lib, asrlar davomida jonli ijrochilik amaliyoti hamda an’anaviy “ustoz-shogird” tizimi vositasida avloddan-avlodga o‘tib kelgan. Maqom yo‘llarini mukammal o‘zlashtirgan ustoz san’atkorlarning individual ijro talqinlari, o‘ziga xos nolalari va parda oralig‘idagi nozik qochirimlari bir-biridan sezilarli farq qiladi. Soha mutaxassislari ta’kidlaganidek, “og‘zaki an’anada yashab kelayotgan mumtoz musiqaning eng nozik intonatsion-ritmik qatlamlari, parda oralig‘idagi og‘ishlar va individual ijrochilik bezaklari faqatgina jonli eshitish va bevosita o‘zlashtirish jarayonida to‘liq namoyon bo‘ladi” [6, 42-b.].

Shu sababli, nota yozuvlari maqom turkumlarining barcha ichki unsurlarini to‘laqonli ifodalash imkoniga ega emas. Zamonaviy raqamli texnologiyalar esa,

xususan, yuqori chastotali raqamli audioyozuv, spektrografik va akustik-intonatsion tahlil vositalari “ijrochining nafas olish va frazirovka ritmi, mikrointerval tebranishlari hamda tembr-dinamik o‘zgarishlarini obyektiv akustik ko‘rsatkichlar darajasida fiksatsiyalash va qiyosiy o‘rganish imkonini yaratadi” [7, 78-b.]. Bundan tashqari, raqamli arxivlar va elektron bazalar nota matni, audio-video fiksatsiya va matnshunoslik sharhlarini yagona multimedia tizimida birlashtirishga xizmat qiladi.

Og‘zaki-professional an’ana vositasida avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan noyob musiqiy merosimiz, ustoz san’atkorlarning betakror ijrochilik sirlari, lokal ijro maktablarining o‘ziga xos uslubiy xususiyatlari hamda individual talqinlari vaqt o‘tishi bilan yo‘qolish yoki qisman yemirilish xavfidan xoli emas. Qolaversa, mumtoz namunalar muhrlangan nota qo‘lyozmalari va jismonan eskirib, akustik sifati pasayib borayotgan eski audiotasmalar ham madaniy meros barqarorligiga jiddiy tahdid solmoqda. Shu jihatdan, mazkur musiqiy yodgorliklarni raqamlashtirish, arxivlashtirish va zamonaviy akustik-axborot muhitiga integratsiyalash bugungi kunning dolzarb ilmiy-madaniy zaruratiga aylanmoqda.

Ushbu nomoddiy madaniy meros O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San’atshunoslik instituti va O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “Oltin fond”ida saqlanadi. Mohir sozanda va xonandalar ijrosidagi noyob lentalar, arxiv materiallari va audio va video yozuvlarni tizimlashtirish zarur.

Bu nima beradi?

Raqamlashtirilgan va yagona milliy platformaga (onlayn arxivga) maqom namunalarini joylashtirish, har bir audio va video yozuvning nomi, maqom nomi, har bir ustoz san’atkorning ijrosi kim tomonidan, qachon yozib olingani, sana va joy, lad va usul haqidagi to‘liq pasport ma’lumotlarini kiritish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mazkur platformalar jahon musiqashunos olimlari, tadqiqotchi va yosh

ijrochilarga ulardan foydalanishlari uchun masofaviy kirish, eng muhimi o‘zbek milliy san’atini xalqaro miqyosda targ‘ib qilish imkonini beradi.

Raqamli texnologiyalarni jalb etib, ustozlarning ovozlari saqlanayotgan eski arxiv lentalari, plastinkalar va notalarni yuqori sifatli raqamli formatga o‘tkazish orqali ularning asl nusxasini abadiy saqlab qolamiz.

Ma’lumki, o‘zbek maqom san’ati tarixan uchta yirik ijro maktabiga (Buxoro, Xorazm va Farg‘ona-Toshkent) bo‘linadi. Har bir maktab o‘ziga xos lad xususiyatlari, usul va doira ritmlari, mohir ijrochilarning shaxsiy ijro uslubi bilan farqlanadi. Ushbu maktablarning o‘ziga xos ijro an’analari va arxiv fondida saqlanayotgan audio va video yozuvlari mavjud. Bu ijro maktablarining o‘ziga xosligini yangi metodologik yondashuv – raqamli texnologiyalarni jalb etgan holda, aniqrog‘i, ko‘p o‘lchovli akustik va spektral tahlil usullari yordamida muhrlash zarur.

Bu qanday tahlillar?

Spektral tahlil – murakkab tovush signallarini (masalan, maqom ijrosida ovoz yoki soz chalish jarayoni) uning tashkil etuvchi elementlariga, ya’ni alohida chastotalar spektriga ajratib o‘rganish usuli. Oddiyroq qilib aytganda, sozanda o‘z cholg‘usini ijro etish jarayonida qulog‘imiz yaxlit bitta ovozni eshitadi. Aslida bu ovoz turli chastotadagi ko‘plab to‘lqinlarning (obertonlarning) qo‘shilishidan hosil bo‘ladi. Spektral tahlil yaxlit bir tovushning ichki tuzilishi qanday mayda qismlardan tashkil topganini ko‘rsatib beradi.

Og‘zaki an’anadagi maqomlarni tadqiq qilishda spektral tahlil juda muhim vazifalarni bajaradi. Masalan, “Sonic Visualiser” yoki “Praat” kabi spektral tahlil dasturlari notada to‘liq aks ettirish mumkin bo‘lmagan va faqatgina jonli ijroda namoyon bo‘luvchi nozik parda o‘zgarishlarini, ustozlar ovozidagi eng nozik “nola” va “ovoz to‘lqinlantirish”ning qaysi chastotada ko‘proq qo‘llanilgani, ijro jarayonida nafasni qanday boshqarishi va h.k. aniq chiziqlar va ranglar orqali

ko‘rsatib beradi. Shu bois, har bir ustoz san’atkorning shaxsiy ijro uslubini zamonaviy uskunalar yordamida raqamlashtirish zarur. Bu esa yosh ijrochilar uchun raqamli platformalarda biror-bir maqom parchasini turli ustozlar ijro etgan variantlarini tinglash, ustozlarning ijrolarini solishtirib o‘rganish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek maqom san’ati merosini asrab-avaylash va rivojlantirishda an’anaviy “ustoz-shogird” tizimi, tarixiy nota yozuvi va zamonaviy raqamli texnologiyalar bir-birini inkor etmaydi, balki o‘zaro to‘ldiruvchi ilmiy-amaliy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Raqamlashtirish maqomning jonli og‘zaki tabiatini to‘liq almashtira olmasa-da, ustoz san’atkorlarning betakror ijrochilik maktablarini, tarixiy qo‘lyozma va audiomanbalarni saqlashga va jismoniy yemirilish tahdidlaridan asrashga yordam beradi hamda ularni kelajak avlodlar uchun muhofaza qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Irzayev B. O‘zbek musiqa madaniyati tarixi sahifalaridan. Toshkent: Akademnashr, 2017. 160 b.
2. Matyoqubov O. Maqomot. Toshkent: Musiqa, 2004. 400 b.
3. Matyoqubov O., Boltayev R., Aminov X. XIX asr Xorazm notasi asosida tiklangan maqomlarning kuy va so‘z matnlari. Toshkent, 2009.
4. Oripov Z. Sharq musiqiy manbashunosligi (X–XI asrlar). Toshkent: Fan va texnologiya, 2008. 160 b.
5. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. Toshkent: O‘zadabiynashr, 1963. 299 b.
6. Rajabov I. Maqomlar. Toshkent: San’at, 2006. 403 b.
7. Qodirov R. O‘zbek musiqashunosligida akustik va nota tahlili masalalari. Toshkent: Fan, 2018.

References

1. Irzayev, B. *O‘zbek musiqa madaniyati tarixi sahifalaridan [Pages from the History of Uzbek Musical Culture]*. Tashkent: Akademnashr, 2017. 160 pp. (in Uzbek)
2. Matyoqubov, O. *Maqomot [Maqomat]*. Tashkent: Musiqa, 2004. 400 pp. (in Uzbek)
3. Matyoqubov, O., R. Boltayev, and X. Aminov. *XIX asr Xorazm notasi asosida tiklangan maqomlarning kuy va so‘z matnlari [Melodic and Verbal Texts of Maqoms Reconstructed on the Basis of Nineteenth-Century Khorezm Notation]*. Tashkent, 2009. (in Uzbek)
4. Oripov, Z. *Sharq musiqiy manbashunosligi (X–XI asrlar) [Eastern Musical Source Studies (Tenth–Eleventh Centuries)]*. Tashkent: Fan va texnologiya, 2008. 160 pp. (in Uzbek)
5. Rajabov, I. *Maqomlar masalasiga doir [On the Question of Maqoms]*. Tashkent: O‘zadabiynashr, 1963. 299 pp. (in Uzbek)
6. Rajabov, I. *Maqomlar [Maqoms]*. Tashkent: San’at, 2006. 403 pp. (in Uzbek)
7. Qodirov, R. *O‘zbek musiqashunosligida akustik va nota tahlili masalalari [Issues of Acoustic and Notational Analysis in Uzbek Musicology]*. Tashkent: Fan, 2018. (in Uzbek)